

**“UZBEK IMPORT FAIR 2025” — MAHALLIY ISHLAB CHIQARISHNI
RIVOJLANTIRISH VA IMPORTNI OPTIMALLASHTIRISH SARI
MUHIM QADAM**

Namozov Dilshodbek G'anijonovich,

Bojxona qo'mitasi Buxoro viloyati

bojxona boshqarmasi xodimi

dilshodbeknamozov@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada mamlakatning eksport salohiyatini oshirish fonida importni optimallashtirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida o'tkazilgan Xalqaro ko'rgazma va uning ahamiyati, tadbirkorlarga ishlab chiqarish bo'yicha yangi yo'nalishlar, eng import qilinayotgan ayrim tovarlarga bo'lgan bo'lgan ehtiyojlarni ichki ishlab chiqarish orqali qoplash haqida mulohazalar va ularni amalga oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan*

***Kalit so'zlar.** importni optimallashtirish, mahalliy ishlab chiqarish, eksport salohiyati, panel sessiyalar, Polyester, PTA (tozalangan tereftal kislota), MEG (monoetilenglikol)*

**“UZBEK IMPORT FAIR 2025” — ВАЖНЫЙ ШАГ НА ПУТИ К
РАЗВИТИЮ МЕСТНОГО ПРОИЗВОДСТВА И ОПТИМИЗАЦИИ
ИМПОРТА**

Намозов Дилшодбек Ганижонович,

Таможенный комитет сотрудник таможенного

управления Бухарской области

dilshodbeknamozov@gmail.com

***Аннотация.** В данной статье разработаны предложения по оптимизации импорта и развитию местного производства с целью увеличения экспортного потенциала страны. Рассматривается значение*

проведённой Международной выставки, направленной на стимулирование местного производства, обсуждаются новые направления для предпринимателей в сфере производства, а также анализируются возможности покрытия потребностей в некоторых наиболее импортируемых товарах за счёт внутреннего производства.

Ключевые слова: оптимизация импорта, местное производство, экспортный потенциал, панельные сессии, полиэстрил, РТА (очищенная терефталевая кислота), MEG (моноэтиленгликоль).

Kirish. 2025-yil 7–9-oktyabr kunlari poytaxtimizdagi “O‘zekspomarkaz”da Bojxona qo‘mitasi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamkorligida **“Mahalliy kontentni oshirishda importni optimallashtirish”** mavzusidagi **“Uzbek Import Fair 2025” I-xalqaro ko‘rgazmasi** ilk marotaba tashkil etildi.

Ko‘rgazmada Bosh vazir o‘rinbosari J. Xodjayev, turli vazirlik va idoralar rahbarlari, xalqaro brendlar, distribyutorlar, investorlar, respublikaning barcha hududlaridan tashrif buyurgan tadbirkorlar hamda tijorat banklari vakillari ishtirok etdi.

Tadbirga nafaqat qo‘shni davlatlar, balki AQSH, Vengriya, Koreya, Misr, Ozarbayjon, Pokiston, Slovakiya, Quvayt va Yaponiya kabi mamlakatlardan **30 ga yaqin xorijiy kompaniyalar** vakillari ham qatnashishdi. Bu esa ko‘rgazmani nafaqat milliy, balki **xalqaro hamkorlik platformasi** sifatida ahamiyatini oshirdi.

Ko‘rgazmaning maqsadi va yo‘nalishlari

Ko‘rgazmaning asosiy vazifasi — mahalliy ishlab chiqaruvchilarni **import hajmi yuqori bo‘lgan tovarlar** haqida aniq ma’lumotlar bilan ta’minlab, shu asosda talab yuqori bo‘lgan tovarlar importini optimallashtirib, **mahalliy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish**.

Natijada, ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to‘ldirib, importga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikka erishish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish orqali qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘lami kengayadi hamda eksport salohiyati ortadi.

Ko'rgazmani samarali tashkil etish maqsadida mahsulotlar 2 ta pavilyonda 24 ta tematik bloklarga ajratildi. Ular orasida oziq-ovqat, farmatsevtika, transport ehtiyot qismlari, kimyo, mebel, charm, to'qimachilik va boshqa sohalar mavjud. Bu yondashuv mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun import hajmi yuqori bo'lgan tovarlarni chuqur o'rganish va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha xulosalar chiqarish imkonini beradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda tovarlar importi yildan-yilga o'sib bormoqda, xususan 2022-yilda 19 foizga, 2023-yilda 31 foizga, 2025-yilning dastlabki 8 oyida esa 10 foizga oshgan. Import tovarlari tarkibida texnologik asbob-uskunalar, metall va metall buyumlari, transport vositalari va ehtiyot qismlari, oziq-ovqat mahsulotlari, elektrotexnika, yoqilg'i-energetika va neft mahsulotlari asosiy qismni tashkil etadi.

Ko'rgazmada O'zbekiston bo'yicha ishlab chiqarish imkoniyati yuqori, ammo eng ko'p import qilinayotgan **3 ming turdagi tovarlar** namoyish qilindi. Bu hududlardagi tadbirkorlar uchun aniq yo'nalishlarni ko'rsatib, bozor talablarini tushunishga yordam beradi.

Hududlarda o'tkazilgan uchrashuvlarda ko'plab tadbirkorlar aynan qaysi tovarlarga talab yuqoriligi va qaysi mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadga muvofiq ekanligi borasida savollar ochiq qolayotganini bildirishgan. Ushbu ko'rgazma ana shunday masalalarga javob olish maqsadida tashkil etilgan.

Ko'rgazma doirasida **importni optimallashtirish masalalariga bag'ishlangan panel sessiyalar** ham bo'lib o'tdi. Sessiyalarda soha mutaxassislari, olimlar, "aql markazlari", ishlab chiqaruvchi korxonalar va ekspertlar ishtirok etib, sanoatning ko'plab yo'nalishlarida takliflar ishlab chiqildi.

Shunday yo'nalishlardan biri sifatida to'qimachilik sanoati bo'yicha soha mutaxassislari bilan birgalikda olib borilgan o'rganishlar va tahlillar shuni ko'rsatdiki, **kundalik kiyimlar, maxsus ish kiyimlari, xavfsizlik kamarlari, qishki kiyim sinteponlari, pardalar, yumshoq mebel va choyshab uchun matolar hamda sport kiyimlari** ishlab chiqarishda asosiy xomashyo sifatida **polyester**dan foydalanilishi, ammo mamlakatimizda **polyester olish** zarur bo'lgan

xomashyo ishlab chiqarilmasligi, granulani qayta ishlash orqali olingan polyester ichki talabni qoplay olmayotganligi sababli, xomashyo ham, polyester ham doimiy ravishda import qilinayotganligi ma'lum bo'ldi.

Polyester ishlab chiqarishni mahalliyashtirish orqali importni qisqartirish

Polyester bu – PTA (*tozalangan tereftal kislota*) va MEG (*monoetilenglikol*)ni kimyoviy va texnologik jarayonlardan o'tkazish orqali olinadigan termoplast polimer bo'lib, asosan tola va ip shaklida to'qimachilik sanoatida keng qo'llaniladi. Chunki polyester tolasi mustahkam, cho'ziluvchan, o'ziga suvni kam shimishi, rangni yaxshi ushlashi kabi bir qator yaxshi xususiyatlarga ega.

Bojxona qo'mitasining statistik ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning 6 oyi mobaynida qiymati 15 mln AQSh doll. bo'lgan **polyester tolasi** va 2.4 mln AQSH doll.ga teng qiymatdagi **polyester ipi** import qilingan.

O'rganishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, polyester ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo manbai PTA va MEG bo'lib, bu mahsulotlar hozircha mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydi. Lekin tozalangan tereftal (*PTA*) kislota ichimlik suvi va oziq ovqat uchun **idishlar, qadoqlash plyonkalari** ishlab chiqarishda, monoetilenglikol(*MEG*) esa **antifriz** ishlab chiqarishda asosiy xomashyo bo'lib xizmat qiladi.

PTA - bu **tozalangan tereftal kislota**($C_6H_4(COOH)_2$) oq kukun holatida bo'ladi. Neftdan olinadigan **paraksilenni** oksidlab va tozalab tayyorlanadi. Polyester ishlab chiqarish jarayonida massaning katta qismini tashkil qiladi (taxminan 85–87 % gacha)

MEG — bu **mono etilen glikol**($C_2H_6O_2$) shaffof, rangsiz, shirin hidli zaharli suyuqlikdir. Tabiiy gazdan olinadigan etilenni sintez qilish orqali olinadi. Polyester molekulasida “spirtli” (glikol) komponent bo'lib, Polyester ishlab chiqarish jarayonida massaning 13-15 foizini tashkil etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda **polyester** to'liq siklda (ya'ni xomashyo — PTA va MEG dan tayyor tolaga qadar) ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmaganligi sababli, asosan **Xitoy, Koreya, Turkiya** kabi davlatlardan import qilinadi.

Shuning uchun to'liq yopiq sikldagi **polyester** ishlab chiqarish (neft → PTA/MEG → granula → ip/tola) hali mavjud emas. Ammo mamlakatimizda yirik neft va gazni qayta ishlash zavodlari borligini inobatga olsak, PTA va MEG ishlab chiqarish imkoniyatini yaratishimiz mumkin.

So'nggi yillarda ayrim mahalliy yirik to'qimachilik korxonalari **import qilingan poliestr** granula yoki tayyor ip asosida poliestr matolar, trikotaj mahsulotlari, texnik matolar, sport kiyimlari uchun gazlama ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Ya'ni, ular **tayyor xomashyoni qayta ishlaydi**, lekin kimyoviy ishlab chiqarish bosqichi mamlakat ichida amalga oshirilmaydi.

Taklif .Yuqoridagilardan kelib chiqib, importga bo'lgan qaramlikning oldini olish maqsadida **PTA va MEGni mahalliy ishlab chiqarishni** yo'lga qo'yib, ularni kimyoviy va texnologik jarayonlardan o'tkazish orqali, **polyester** olish taklifi beriladi. Bunday ishlab chiqarish jarayoni murakkabligini inobatga olib, dastlab dunyo bozorida PTA va MEG ishlab chiqarish bo'yicha yuqori o'rinda turadigan Xitoy bilan hamkorlik qilib, ishlab chiqarish zavodini birgalikda qurish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa. "Uzbek Import Fair 2025" I-xalqaro ko'rgazmasi mamlakatimiz sanoatida **import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish kooperatsiyasini kengaytirish** uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu orqali import hajmini bosqichma-bosqich kamaytirish, ichki ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.

Shubhasiz, ushbu ko'rgazma mamlakatimiz sanoat siyosatida importni optimallashtirish bo'yicha amaliy yechimlar ishlab chiqish va ularni real sektorga tatbiq etishda muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Manbalar:

Bojxona qo'mitasining YAAT ma'lumotlari

t.me/customschannel rasmiy telegram kanali

"O'zbekiston 24" telekanali

t.me/uzbekistan24_tvnews rasmiy telegram kanali

www.essentialchemicalindustry.org sayti

www.icis.com sayti

www.slchemtech.com sayti